



ISSN 2181-1571



FERGANA STATE
UNIVERSITY

**FarDU.
ILMIY XABARLAR**

**IJTIMOIY GUMANITAR
FANLAR**

**Scientific journal
of the
Fergana State
University**



1/2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririylashriyot bo'limga tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya) VANG JIANSIN. (Xitoy)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TURAYEV A. (O'zbekiston)
--	---	--

Tahririyat kengashi

IJTIMOY GUMANITAR FANLAR

EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston) XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston) TOJIBOYEV H. (O'zbekiston) O'RINOVA N. (O'zbekiston) ABBASOVA N. (O'zbekiston) DAVLYATOVA G. (O'zbekiston) G'OFLUROV A. (O'zbekiston) XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston) HOLMATOV B. (O'zbekiston) XAKIMOV N. (O'zbekiston) ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston) USMONOV B. (O'zbekiston) MAXMUDOV O. (O'zbekiston) QAHHOROVA M. (O'zbekiston) MAMATOV M. (O'zbekiston) QAMBAROV A. (O'zbekiston) AHRORQULOV A. (O'zbekiston)	FarDU, p.f.d.prof. FarDU, p.f.d.prof. Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc) FarDU, p.f.n.dots. FarDU, p.f.b.f.d(PhD) FarDU, p.f.n. FarDU, i.f.d.prof. FarDU, i.f.d.prof. FarDU, i.f.n. FarDU, f.f.d. dots. FarDU, t.f.d. FarDU, t.f.d (DSc) FarDU, t.f.d.dots Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof FarDU, yu.f.b.f.d(PhD)	SIDIQOV I. (O'zbekiston) YULDASHEV S. (O'zbekiston) G'ANIYEV B. (O'zbekiston) QOSIMOV A. (O'zbekiston) MAMAJONOV A. (O'zbekiston) ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston) SHUKUROV R. (O'zbekiston) ZOKIROV M. (O'zbekiston) MO'MINOV S. (O'zbekiston) YULDASHEVA D. (O'zbekiston) MAMAJONOV M. (O'zbekiston) KAXAROVA M (O'zbekiston) ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston) SABIRDINOV A. (O'zbekiston) RAHIMOV Z. (O'zbekiston) MIRZAYEVA D. (O'zbekiston)	FarDU, f.f.d.dots. FarDU, f.f.b.f.d(PhD) FarDU, f.f.d.dots. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.n.dots. FarDU, f.f.n.prof. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.doktori. FarDU, f.f.b.f.d.dots. FarDU, f.f.n.dots. FarDU, f.f.n. FarDU, f.f.d.prof. FarDU, f.f.d.,dots FarDU, f.f.b.f.d(PhD)
---	---	--	--

Muharrirlar:

Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar:

Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journalal.fdu.uz

Farg'ona, 2024

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari.....	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirdorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
"Siyosiy falsafa" va "Siyosat falsafasi" o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari	210
A.Xamdamov	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar.....	219
A.Н.Адыгезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гуум	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni.....	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar.....	235
G'.R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi.....	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в Туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyozi Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyining mudarrislik faoliyati.....	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar)	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boydedayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

**O'RTA ASR MUTAFAKKIRLARINING JAMIYAT IDEOSFERASI YANGILANISHI
TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR TAHLILI**

**АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЙ СРЕДНЕВЕКОВЫХ МЫСЛITЕЛЕЙ ОБ
ОБНОВЛЕНИИ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА**

**ANALYSIS OF THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF THE MEDIEVAL THINKERS ON THE
RENEWAL OF SOCIETY IDEOSPHERE**

Turdiyev Bexruz Sobirovich¹

¹Buxoro davlat universiteti, yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasи dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqola demokratik jamiyat rivoji, taraqqiyot genezisi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatgan falsafiy g'oya hamda qarashlar evolyusiyasini ochib berishga bag'ishlanib, jamiyat ideoferasining yangilanishida ma'rifatravarlik, ta'lif-tarbiyaning roli masalasi va uni yangilash, dunyo ilmlarini egallash tahlil etilgan. Bunda o'rtta asr Sharq mutafakkirlarining ilm-ma'rifatni rivojlantirmay turib, taraqqiyotga erishib bo'imasligi masalasi analiz va sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi ilmiy bilish usullar asosida tadqiq etilgan. Milliy va umuminsoniy g'oyalar, maqsadlar mushtarakligi bilan sug'orilgan falsafiy g'oyalar, qarashlar va ta'limotlar insoniyatning demokratik taraqqiyotiga xizmat qilib, falsafiy meros sifatida qimmatli ekanligi ochib berilgan. Maqolada demokratik rivojlanishda jamiyat ideoferasi yangilanishini hisobga olish va umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, jamiyat rivojlanishining ob'yektiv qonuniyatlarini e'tirof etilishi ta'kidlangan. O'rta asrda faoliyat yuritgan buyuk mutafakkir, alloma va jamoat arbollarining jamiyat ideoferasi yangilanishi to'g'risida ilmiy-falsafiy qarashlarini chuqur tadqiq etilib, uning yosh avlodni intellektual va ma'naviy rivojlantirish omili ekanligi, ular ongida tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, fidoyilik va daxldorlik hissini shakllantirishi va xalqimiz milliy yuksalishiga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена раскрытию эволюции философских идей и взглядов, повлиявших на развитие демократического общества, генезиса и динамики развития, проблемы просвещения, роли образования в обновлении идеосферы общества и её обновлении, приобретении светских знаний. На основе методов научного познания средневековых восточных мыслителей, таких как анализ и синтез, сравнительный анализ, обобщение, исследуется тот факт, что нельзя достичь прогресса без развития знаний. Философские идеи, взгляды и учения, проникнутые общностью национальных и общечеловеческих идей и целей, служат демократическому развитию человечества и раскрываются как ценное философское наследие. В данной статье подчеркивается, что демократическое развитие должно учитывать обновление идеосферы общества, основываясь на общечеловеческих принципах, признавать объективные закономерности развития общества. Были глубоко исследованы научно-философские взгляды средневековых великих мыслителей, ученых и общественных деятелей по обновлению идеосферы общества, а также обосновано, что она является фактором интеллектуального и духовного развития молодого поколения, что она формирует в их сознании чувство инициативы, ответственности, самопожертвования, сопричастности и служит национальному развитию нашего народа.

Abstract

This article is devoted to revealing the evolution of philosophical ideas and views that influenced the development of a democratic society, the genesis and dynamics of development, in which the question of the role of enlightenment and education in the renewal of the ideosphere of society and its renewal, world sciences acquisition is analyzed. In this, the medieval thinkers of the East investigated the issue of the impossibility of progress without the development of knowledge, based on scientific knowledge methods such as analysis and synthesis, comparative analysis, and generalization. Philosophical ideas, views and teachings, imbued with the commonality of national and universal ideas and goals, serve the democratic development of humanity and are revealed to be valuable as a philosophical heritage. The article emphasizes the consideration of the renewal of the ideosphere of the society in democratic development and the recognition of the objective laws of the development of the society. The scientific-philosophical views of the great thinkers, scholars and public figures who worked in the Middle Ages on the renewal of the society's ideosphere were deeply researched, and it was found that it is a factor in the intellectual and spiritual development of the young generation and it is justified that they form a sense of initiative, responsibility, self-sacrifice and involvement in their minds and serve the national development of our people.

Kalit so'zlar: jamiyat, ideofera, madaniyat, ma'naviy meros, ma'rifat, konsepsiya, davlat, ilm-fan, adolat, komil inson, svilizatsiya, dunyoqarash.

Ключевые слова: общество, идеосфера, культура, духовное наследие, просвещение, концепция, государство, наука, справедливость, совершенный человек, цивилизация, мировоззрение.

Key words: society, ideosphere, culture, spiritual heritage, enlightenment, concept, state, science, justice, perfect person, civilization, worldview.

FALSAFA

KIRISH

Jamiyat ideosferasi yangilanishi xalqning o'tmishi, madaniy-ma'naviy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini obektiv baholay olish, uni anglash, ulardan oqilona foydalanish hamda rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tarixiy-falsafiy jarayondir. Bu jarayonda agar xalq o'z tarixi, milliy madaniyati, qadriyatları, ma'naviy merosidan bexabar qolsa, o'tmish haqidagi aniq tasavvur ham, kelajakka qaratilgan muayyan strategik maqsad ham, bu yo'lda birlashish yo'li bilan ezgu maqsadga safarbar etib borish xohishi ham bo'lmaydi. Ma'naviy tanazzulga tushib qolgan xalq undan chiqa olmas ekan, tez orada boshqa xalqlarning madaniyati ta'siriga tushib qolishi, o'z milliy mentaliteti, o'zligini yo'qotishi, qadr-qimmatini unutishiga yuz tutishi mumkin. Bunday holatda xalqlar milliy mentaliteti, ma'naviyati zaif bo'lgan etnik guruh sifatida tarix sahifasida o'z o'rnnini egallay olmay, yo'qolib borish xavfi ostida qolishi mumkin. Bundan ko'rinish turibdiki, jamiyat va xalqning ma'naviy yangilanish jarayoni bir-biri bilan uzviy bog'liq. Demak, ideosferani shakllantirmasdan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yuksalishi ham mushkul.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyoti va rivojlanishida muqaddas islom dini asoslari jahon xalqlari ideosferasi yangilanishlarida yangi bir davrni ochib berdi. Islom dinining ma'rifatparlik g'oyalari Qur'oni Karim va Hadis singari muqaddas kitoblarda butun insoniyatni ezgu maqsadlar sari chorlab kelmoqda.

Qur'onda iymonning o'ziga xos mezoni sanalgan saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr-toqat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan. Unda kishilar orasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash to'g'risida ham ko'rsatma bor. "Bu oliy darajadagi insoniy xislatlar bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyilgan. Bu xislat jamiyatga tinchlik va osoyishtalik keltiradi. Shuning uchun ham kishilarning o'zaro do'stona aloqalarini mustahkamlash musulmonchilik talablaridan sanaladi"[1.191].

Islom olamidagi ikkinchi muqaddas kitob Hadisi Shariflarda esa insonning ma'naviy kamoloti, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, bilimlarning qay darajada egallanganligi ko'rsatilgan. Jamiyatga va o'ziga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib yetishishda muhim omil - bilim egallah kerakligi, bilimsizlik jamiyatni jaholatga boshlashi uqtiriladi.

Islomning ma'rifatga chorlovchi hayotbaxsh g'oyalari IX asrda maxsus islom ilmlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Yunon ilm-fanidan o'tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa qator ilmlardan tashqari kalom, hadis, fiqh kabi islomiylar yuzaga keldi. Islom Sharqda nafaqat din sifatida, balki yaxlit umuminsoniyat madaniyati hamda ma'naviyatning shakllanishiga olib keldi. Natijada, jahon madaniyatning ilm-fan, falsafa, san'at, axloq, siyosat singari sohalarining yangilanishiga zamin yaratdi.

"IX-XII asrlar Markaziy Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston zaminida yashagan xalqlar hayotida ijtimoiy-siyosiy hamda ilmiy madaniy voqealarga boy davrlardan biri hisoblangan [2.64]". Bu davrda diniy ilmlar sohalarida mintaqal shuhratini olamga tanitgan imom Buxoriy, imom Termiziyy, G'azolliy, Nizomulmulk kabi allomalar, dunyoviy ilmlar sohasida esa, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino hamda tasavvuf ma'naviy-ma'rifiy ta'limoti sohasida Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshbandva boshqa yirik mutafakkirlarning jamiyat taraqqiyoti rivojida jamiyat ideosferasining beqiyos o'rni haqidagi qarashlari butun jahon ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga beqiyos hissa qo'shdi.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jahon ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixida "Sharq Aristoteli" ("Ikkinchi muallim") degan unvonga sazovor bo'lgan mashhur qomusiy olim sifatida tanildi. Allomaning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatning yuksalish yo'llari, axloqning shakllanishi, inson va jamiyatning o'zaro munosabati, insoniylik, adolatparvarlik, tarraqiyot, buyuk jamiyat, komil inson kabi mavzularni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Abu NasrForobiy talqinicha, "...haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar - fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi - fazilatli jamoadir.

Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq – fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtaga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo'ladi" [3.288].

Demak, Forobiy ta'biricha, jamiyat va xalqlarning o'zaro bir-biriga yordami, teng huquqlilik, adolatparvarlik tamoyillari fozil davlatning ma'naviy yuksalishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Forobiy ijtimoiy yuksalishga va baxt-saodatga ma'naviy yuksalishga orqali, ya'ni ilm va ma'rifat asosida yuzaga keladigan aqliy va axloqiy fazilatlar orqali erishish mumkin degan xulosaga keladi.

Uyg'onish davrining buyuk qomusiy mutafakkirlaridan yana biri **Abu Rayhon Beruniy (973-1048)** hisoblanadi.

Beruniy talqin etishicha, insonning eng oily baxti bilishda, chunki u aqlga ega. Baxt ana shu nuqtai nazardan tushunilsagina jamiyatga tinchlik va farovonlik keltiradi. Uning "Hindiston" asarida shunday bir hikoya keltiriladi: "Bir kishi shogirdlari bilan birga tim qorong'i kechada bir zarurat uchun yo'nga chiqqan, yo'l ustida tik turgan bir qoroltiga ko'zları tushgan, uning haqiqatini bilishga kecha qorong'usi to'sqinlik qilgan, shunda haligi kishi shogirdlariga qarab birin-ketin ulardan u qoroltining nima ekanini so'raganda, birinchisi, nima ekanini bilolmayman, degan; ikkinchisi, nima ekanini bilolmayman va bilishga qudratim ham yetmaydi, degan. Uchinchisi esa, bilishning foydasi yo'q, chunki tong yorisa, u narsa ma'lum bo'ladi qo'yadi, agar qo'rquinchli narsa bo'lsa, tong otishi bilan yo'q bo'ladi, agar qo'rquinchli narsa bo'lmasa, uning ahvoli bizga ravshan bo'ladi qo'yadi, degan.

Demak, uch shogirdining ma'rifati qisqalik qildi. Birinchisi, ilmsizligi sababli, ikkinchisi, ojizligi va qurol-organiga ofat yetgani sababli, uchinchisi, ishni keyinga qo'yishi va ilmsizlikka rozi bo'lib turishi sababli ma'rifatda qisqalik ko'rsatdi. Ammo to'rtinchisi aniq bilmasdani turib javob bermaydi, o'sha qoroltinni mo'ljallab yaqin borganida bir-biriga chirmashib o'ralashib ketgan qovoq palagini ko'rdi. Shunda u shogird tirik va ixtiyori o'zida bo'lgan insonning o'sha chirmashgan narsa ma'lum bo'lgunicha turgan joyida qolmasligini tushundi va u qoroltining jonsiz narsa ekanini aniqladi. Bu shogird ustoziga aniq xabar keltirgan edi, ustozи huzurida ma'rifat qozondi" [4.77-78]. Yuqoridagi voqeа shundan dalolat beradiki, inson tabiatan yashirin narsalarni, tafsiloti nomalum bo'lgan narsalarni bilishga ehtiros bilan intiladi. Beruniyning jamiyatning ma'naviy yangilanib borishida mehnatning, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning, inson omilining roli va ahamiyati beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Faylasuf olim jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali yuksalishi, unda adolat, insonparvarlik, zulmni bartaraf etish, tinchlik va inoqlik bosh mezon bo'lishi kerakligi uqtiriladi.

Ibn Sino (980-1037) jahon xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrining buyuk namoyondasi, Sharqda "Shayx ur-rais" (olimlar boshlig'i) degan nom bilan shuhrat qozongan qomusiy olimi – mutafakkiridir [5.59]. U insoniyat tarixida tabib sifatida tanildi, balki o'z davrining buyuk faylasufi, o'zidan keyingi davr ilm-fani, madaniyati rivojiga hissa qo'shgan buyuk donishmand sifaida shuhrat topdi. Mutafakkirning deyarli barcha fanlar sohasidagi ulkan ma'naviy merosini haqli ravishda butun umumbashariyat fani va madaniyatining bebafo durdonasi deyishimiz huquqini bersa, uning hayot yo'li umumjahon sivilizatsiyasi erishgan yutuqlar namunasidir.

Ibn Sinoning jamiyat ma'naviy yangilanishi haqidagi qarashlarining nodir jihatlardan biri shunda ediki, alloma qarashlarida o'z davrining juda ko'plab ilg'or konsepsiyalarini ifodalay oldi. U o'z davri va undan oldingi yirik faylasuf olimlar qarashlaridagi jamiyat yuksalishida ma'naviy o'zgarishlar muhim omil ekanligini o'rganib, ushbu qarashlarni ilm-fan an'analari orqali rivojlantirishga o'z hissasini qo'shdi. Bu borada mutafakkir bir qancha g'oyalarni ilgari surdi.

Ibn Sino jamiyat va inson kamolotga erishishining birinchi asosini bilimlarga erishishda deb ko'rsatadi. Zero, ilm-fan borliq va insoniyat oldidagi hayotiy qonuniyatlarni ochib, aniqlik va yuksalishga yo'naltiruvchi yo'l deb biladi. Bilim va ma'rifat yo'liga chiqqan inson, ushbu yo'ldagi to'siq va qiyinchiliklarni yengib o'tishi lozimligini ta'kidlaydi. Ibn Sino o'z ilmiy merozi bilan insonlarning baxtli va farovon hayot kechirishlari uchun doim ilm-ma'rifatni egallah yo'lidan borishlarini maslahat beradi: "Ey birodalar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqlaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqlig'idir" [6.15]. Demak, ma'rifatli inson kuchli, o'limdan qo'rqlaydigan, faqat jamiyat va insoniyat kamoloti uchun harakat qiladigan insonni nazarda tutadi.

Shunday qilib Ibn Sinoning ilmiy-ma'naviy merozidagi g'oyalalar nafaqat inson bilim va tafakkurining yuksalishiga, shuningdek, jamiyat va davlatning rivojlanishiga xizmat qildi. Bu ilmiy-falsafiy g'oyalalar hozir ham jamiyatning ma'anaviy yuksalish yo'lida xizmat qilmoqda.

Adolatli davlat va fazil jamiyatning o'zaro bog'liqligi, siyosiy hokimiyat masalalari **G'azzoliy**, asarida ham qalamga olingan. Imam G'azzoliyning "Kimyo'i saodat" asarida davlat rahbari jamiyatning yuragi, odamlarning dono va diyonatli rahbar atrofida uyushishi Haq taolo xohishiga muvofiq, degan g'oya ifodalangan.

Nizomulmulk (1018-1092) oqilona va adolatli davlat boshqaruvi tufayli Malikshohning nomi tarixda qoldi. U adl va insofning buyuk me'mori edi. Unining "Siyosatnoma" ("Siyar ul-muluk") asarning asosiy g'oyalari ham shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va imonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat etadi.

"Davlatni idora qilish talablaridan yana biri bu chetdan koriz qazib suv keltirish, qishlog'u dalalar obodonligi uchun katta ariqlar qazish, qal'alar qurish, shaharlar bino etish, zebo binolaru keng ko'chalar, rabotlar qurdirishdir. Tolibi ilmlar uchun madarasalar ochish ham zarur, chunki bunda shohning nomi abadiy qoladi va uning savobidan mulkida sulhu tinchlik hosil bo'ladi". Yoxud "...davlatu donish va ezgu

FALSAFA

rasmu odat yorug' shamga o'xshaydi. Va odamlar shu yorug'lilikda yo'llarini topib, qorong'ilikdan chiqadilar" [7.20-21].

Nizomulmulkning jamiyat ma'naviy taraqqiy ettirish to'g'risidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarida barkamol avlodni davlat va jamiyat ishlarida halollik va tog'rilik, buniyodkorlik va ma'rifatparlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Markaziy Osiyo ma'naviy yuksalishlar taraqqiyotida ayniqsa, sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi sifatida tan olingen Amir Temur va temuriylar davri ham mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan. Ayni bu yuksalishlar davorda Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi yuzlab olimu fuzalolar yetishib, mintaqqa madaniyati va ma'rifatining gullab-yashnashini yangi bosqichga ko'tarib chiqishdi.

Buning asosiy sabibi esa, Amir Temurning davlat va jamiyatni ma'nан yuksaltirish borasida olib borgan izchil siyosati va buniyodkorlik faoliyatiga bergan e'tiborining yorqin ifodasıdir. Bu davr xalqımız ma'naviy yangilanishlarining oltin davri sifatida, milliy madaniyatimizning taraqqiyoti va barqaror rivojlanshiga ulkan hissa qo'shdi.

Faylasuf olim Qiyomiddin Nazarov "Temur va temuriylar davrini tarix falsafasi va falsafa tarixini uyg'un tarzda yozish orqali nisbatan to'g'ri ifodalash mumkin. Amir Temurning hayoti, uning faoliyati, temuriylar davridagi madaniy jarayonlar, ilm-fan rivoji kabi masalalar esa bir necha falsafiy kitoblar, o'nlab tadqiqotlar uchun mavzu ekanligi aniq" [8.46] deb ta'kidlagani bejiz emas, albatta.

Zero, Amir Temur butun hayotini mintaqqa xalqlarining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi. Yurtda bog'dorchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or markazlarning biriga aylandi. Bo'riboy Ahmedov qayd etganidek, Amir Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar, qasabalar, qishloqlarni, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Yassi (Turkiston) singari shaharlarda qad ko'targan oly imoratlarni aytmaysizmi?!" [9.3] Amir Temur imperiyasini poytaxti bo'lmish Samarqand g'oyat obod va ko'rkm shaharga, ya'ni shoir madh qilganday, "yer yuzining sayqali"ga aylandi.

Amir Temurning o'zining "Temur tuzuklari"dagи "Davlat qurish oldidagi ikkinchi kengashi", "Sultanat tuzish yo'lidi uchinchi kengashi", "Sultanatni tiklash yo'lidi to'qqizinch kengashi", "Sultanatni mustahkamlash uchun qilgan o'ninch kengashi", "Sultanatga rivoj berish uchun qilgan o'n birinchi kengashi" hamda "Mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshirish tuzugi"da mamlakatda kuchli tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta'minladi. Uning "Temur tuzuklari"dagи: "Ishlarimning barini kengash bilan yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, undan chiqish yo'llarini o'ylab qo'yay edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, sabr-chidam ko'rsatib, ehtiyyotkorlik bilan uzog'ini o'ylab, ortini sedan chiqarmagan holda oxiriga yetkazardim" [10.16], so'zlarida mamlakatda "Kuch - adolatda" degan prinsipni amalga oshirgani, ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratganligini ko'rsatadi.

Temurning yana bir ulkan xizmati shuki, u madaniyat va ilmfan homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olimu fuzalo va din arboblarini to'pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijom bilan mashg'ul bo'ldilar.

Shunday qilib, Amir Temurning jamiyat taraqqiyotida ma'naviy yangilanishlar haqidagi qarashlari zamonaviy falsafiy ta'limotga asoslangan. Bu tamoyillar Amir Temur davlatini ma'nан yuksalishi bilan o'zaro bog'lanib, ular bir-birini to'ldirganki, ulardag'i ushbu aloqadorlik va bog'liqlik xuddi bir doiradan iborat mustahkam zanjirga o'xshaydi. Bu zanjir esa, umumiylik hodisalari asosida yuzaga kelib, Amir Temur sultanatini ma'navi yuksalishiga qaratilgan.

Temuriylar sulolasidan nomi faqatgina Sharq olamidagina emas, balki G'arb dunyosida ham bir necha asrlar mobaynida yod etilib va e'zozlanib kelinayotgan buyuk zotlardan biri - Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek (1394-1449-yillar)dir.

Buyuk mutafakkir va davlat arbobi hukmronlik qilgan davr Sharqning yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylanadi. Bu ko'tarilish bejizga hozirgi fanda O'rta Osiyo renessansining so'nggi davri va umuminsoniy renessansining bir qismi deb ta'riflashmaydi.

Qanday atalishidan qat'i nazar, bu ilmiy-madaniy ko'tarilish O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i bilan bog'liq bo'lib, u ham bo'lsa, o'z ibtidosini Ulug'bekning XV asr boshida Samarqanddagi ilmiy faoliyatidan oladi. "Bu bir yarim asrlik davr o'rta asr xalqlarining ma'naviy va moddiy madaniyati tarixida nihoyatda chuqur iz qoldirdi va hozirgi kunda ham bu xalqlar madaniy rivojlanishining asosida turadi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo xalqlari Ulug'bek va uning safdoshlaridan abadiy minnatdordirlar" [11.45].

1994-yilda BMTning bo'yicha YUNESKO qarori bilan allomaning 600 yillik yubileyining nishonlashi, Ulug'bekning jahon ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida qo'shgan hissasining jahon miqyosida e'tirof etilishining yorqin misolidir.

Buyuk o'zbek shoiri, ulug' mutafakkir, taniqli davlat arbobi Alisher Navoiy (1441-1501)ning ijodi serqirra, asarlari ijtimoiy-falsafiy, siyosiy, axloqiy fikrlarga boy bo'lib, insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgandir.

Uning bunyodkorlik va insonparvarlik qarashlari O'rta Osiyoning ma'nnaviy va ma'rifiy fikr taraqqiyotida alohida o'r'in tutadi. Allomaning qirqdan ortiq qoldirgan ilmiy merosi namunalari ma'nnaviyatimizni shakllantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Mutafakkir insonlik mohiyatini uning ijtimoiy faoliyatida - jamiyatga foydali kasb bilan shug'ullanishi, xalqqa manfaati tegishi, odamlarning og'irini yengil qilish ida deb biladi. Uning xalq g'amini o'z g'ami deb bilmaydigan odamni odam qatoriga qo'shmasligi bejiz emas:

Odamiy ersang, demagil odami

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'am [12.256]

Navoiy jamiyat ideosferasini yangilash zarurati xususida to'xtalar ekan, uni bevosita komil inson tarbiyasi bilan bog'lab o'tgan. Mutafakkir fikricha, insonning komillika intilishi uchun, inson avvalo, insoniy ezgu xislatlarni qalbiga naqsh etishi, o'z zamonasining ilmu-hunarlaridan xabardor bo'lishi, nafaqat ma'nан, balki jismonan yetuklikka intilishi, mamlakat va millat manfaatlarini o'zining manfaatlaridan ustun qo'yishi, o'z ona Vataniga sodiq farzand bo'lishi kabi fazilatlar sohibi bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib atganda, o'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarida inson va jamiyatning ma'nан yuksalishi masalalari yetakchilik qiladi. Shuning uchun jamiyat ideosferasini yangilash va yuksaltirishimiz yo'lida buyuk alloma va donishmandlarimizning ma'nnaviy-ma'rifiy merosini o'rganish o'sib kelayotgan yosh avlod ma'nnaviyatini o'stirish, ularning dunyoqarashlarini kengaytirish, komilikka intilishlari hamda ajdodlarga munosib vorislar bo'lislariiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зиёмуҳаммадов Б. Комиликка элтувчи китоб. –Т., “Турон-иқбол”, 2006. –352 б.
2. Юсубов Д.А. Сайтходжаев Х.Б. Мавлянов А.А. Фалсафа. –Т., “Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси”, 2012. – 146 б.
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри (Масъул муҳаррир: М.Хайруллаев, М.Жакбаров). –Т., “Янги аср авлоди”, 2016. –320 б.
4. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар II. (Масъул муҳаррирлар: F.Жалолов, А.Ирисов)–Т., “Фан”, 1965. –538 б.
5. Хайруллаев М. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. –Т., “Ўзбекистон”, 1995. –240 б.
6. Ибн Сино. Фалсафий қиссалар (Ирисов А.). –Т., “Бадиий адабиёт нашриёти”, 1963. –48 б.
7. Низомулмулк. Сиёсатнома (“Сияр ул-мулук”) (Масъул муҳаррир: Шариф Холмурод). –Т., “Янги аср авлоди”, 2015. –312 б.
8. Назаров Қ. Фалсафа асослари. –Т., “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2018. –102 б.
9. Аҳмедов Б. Амир Темур ўгитлари. –Т., “Ўзбекистон”, 2007. –64 б.
10. Темур тузуклари. Таҳрир ҳайъати: Б.Абдухалимов ва б. –Т., “Ўзбекистон”, 2016. –184 б.
11. Аҳмедов А. Улугбек Мухаммад Тарагай. –Т., “Ўзбекистон”, 2011. –48 б.
12. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Хамса. Ҳайратул-аббор. (Йигирма томлик, еттинчи том) –Т.: “Фан”, 1991. –392 б.